



## HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA PORTLOVCHI VA QORISHIQ UNDOSHLARNING FONOLOGIK TAVSIFI

**Irodaxon Agzamova**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili  
va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**O'qituvchi: Shahnoza Muxtarova**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilidagi portlovchi va qorishiq undosh tovushlarning fonologik xususiyatlari, ularning tasnifi, talaffuzi va fonematik ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Har ikki turkum undoshlarga xos fonetik va fonologik jihatlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Portlovchi undoshlar, qorishiq undoshlar, fonologiya, o'zbek tili, artikulyatsiya.

**Kirish.** Fonologiya (fono... va ...logiya) — tilshunoslikning til tovush qurilishining strukturaviy (tuzilmaviy) va funksional (vazifaviy) qonuniyatlarini, tilning eng mayda, ma'no bildirmaydigan birliklari — bo'g'inlar, fonemalarning tuzilishi va amalda qo'llanishini o'rganuvchi bo'limi.

Undosh tovushlarning fonologik xususiyatlariga yuzlab ishdan avval undosh tovushlarga to'xtalsak.

Undosh tovushlar — og'iz va bo'g'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchrab paydo bo'ladigan, tarkibi faqat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat tovushlar. Ularning talaffuzida havo oqimi sirg'alib yoki portlab chiqadi. Bu havo oqimi un paychalarini titratib yoki titratmay o'tadi. Natijada turli jihatdan birbiridan farqli Undosh tovushlar hosil bo'ladi. Dunyodagi har bir til o'ziga xos undoshlar tizimiga ega. Tildagi undoshlar tizimi konsonantizm (lotincha: consonans — undosh tovush) deyiladi. Undosh tovushlar soni turli tillarda turlichadir. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida Undosh tovushlar soni 24 ta bo'lsa, boshqa tillarda bundan kam (mas, turk tilida 17 ta) yoki ortiq bo'lishi mumkin. Bu miqdor rus tilida 34 tani, fin tilida 14 tani tashkil etadi.



Undosh tovushlar bir necha jihatdan tasnif qilinadi: 1) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra; 2) hosil bo'lish o'rniga (nutq a'zolarining ishtirokiga ko'ra; 3) hosil bo'lish usuliga ko'ra; 4) palatalizatsiyaga (tilning qattiq tanglay tomon ko'tarilishiga) ko'ra. Ushbu tasniflarni hozirgi o'zbek adabiy tilidagi 24 ta [b, v, g, d, j (jyuri), j (jo'ja), y, k, l, m, n, ng, p, r, s, t, f, x, s, ch, sh, q, g', h] Undosh tovushlar misolida ko'rib chiqish mumkin.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra, Undosh tovushlar 2 asosiy turga bo'linadi: sonorlar va shovqinlilar. Sonorlar (m, n, ng, l, r) tarkibida shovqinga nisbatan ovoz ustunlik qiladi. Sh o v qinlilar esa faqat shovqindan yoki shovqinga ovoz qo'shilishidan qosil bo'ladigan Undosh tovushlardir. Ovozning qatnashishi yoki qatnashmasligiga ko'ra, shovqinli undoshlar ham 2 ga: jarangli undoshlar va jarangeiz undoshlarga bo'linadi. Jarangli undoshlar (mas, b, v, g, d, z, y) shovqinga ovoz qo'shilgan undoshlardir. Jarangsiz undoshlar esa (p, f, k, t, s, sh) faqat shovqinning o'zidan iborat bo'ladi.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra, Undosh tovushlar 4 ga bo'linadi; portlovchilar — nutq a'zolarining jipslashuvi va havo oqimi bosimining shu a'zolari yorib o'tishi natijasida hosil bo'ladigan p, b, t, d, k, g kabi undoshlar; sirg'aluvchilar — nutq a'zolari birbiriga yaqinlashib, havo oqimi shu tor oraliqdan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladigan v, f, z, s, j, sh, x, g' kabi undoshlar; titroq tovush — til uchining yuqori milkka tegibtegmay titrashidan hosil bo'lgan r undoshi; affrikata — portlovchi tovush bilan sirg'aluvchi tovushning yaxlit bitta tovush sifatida talaffuz qilinishidan hosil bo'lgan ch(t+sh), j(d+j), s(t+s) tovushlaridir.

Undosh tovushlarning tasnifi va talaffuzi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar ularning tilshunoslikdagi qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Undosh tovushlarning aniq va to'g'ri talaffuzi, til o'rganish jarayonining samaradorligini oshiradi. Buning uchun til o'rgatishda maxsus metodologiyalar va usullarni qo'llash zarur.

Portlovchi undoshlar (shuningdek ploziv undoshlar yoki eksploziv undoshlar) — okklyuziv undoshlar, ularning artikulyatsiyasi paytida yumshoq tanglay pardasi ko'tariladi va havo og'iz bo'shlig'iga o'tadi (burun undoshlaridan farqli o'laroq) va



to'siqning ochilishi keskin sodir bo'ladi va portlashga o'xshaydi ( affrikatlardan farqli o'laroq). Portlovchi undoshlar dunyo tillarida eng keng tarqalgan tovushlar. Barcha tillarda portlovchi tovushlar mavjud va kamida [p], [t], [k] tovushlari mavjud bo'ladi.

### **Asosiy portlovchi tovushlar**

P / b – lablab (bilabial)

T / d – til oldi (koronal)

C / j - til o'rta (palatal)

K / g – til orqa (velar)

Q / g - chuqur til orqa (uvular)

ʔ - faringal portlovchi

ʔ - to'xtash tovushi (glottal portlovchi)

Sirg'aluvchi tovushlar talaffuz qilinganda nutq a'zolari havo oqimi, yo'lini to'sadi-yu, lekin orada qolgan kichik tirqishdan havo sirg'alib chiqadi, natijada sirg'aluvchi tovushlar hosil bo'ladi. Qorishiq undoshining ya'ni ch undoshining qorishi deb atalishiga sabab shuki, u tarixan ikki tovushning ( t va sh) birikivudan iborat bo'lib, biri portlovchi va biri sirg'aluvchi tovushni o'z ichiga oladi. Demak, u nutq a'zolarining bir yerda paydo bo'lgan, ajratilmay aytiladigan tovushni bildiradi.

**Xulosa.** Portlovchi va qorishiq undoshlar o'zbek adabiy tili fonologik tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Ularning fonetik va fonologik xususiyatlarini tahlil qilish orqali til tovushlarining tuzilishi, ularning nutqdagi o'рни chuqurroq anglash mumkin bo'ladi. Bu tovushlar so'z ma'nosini farqlashda faol ishtirok etadi va fonematik tizimning barqarorligiga xizmat qiladi.

### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1qism, T., 1980; 2.Reformatskiy A. A., Vvedeniye v yazikovedeniye, M., 1998.
- 3.[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Portlovchi\\_undosh\\_tovushlar](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Portlovchi_undosh_tovushlar)
- 4.[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Undosh\\_tovushlar](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Undosh_tovushlar)
- 5.Tursunov, S. Fonologiya masalalari. – Toshkent: Fan, 1985. – 215 b.



6. Jo‘rayev, N. N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili fonetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 256 b.

7G‘ulomov A., Tojiyev M. O‘zbek tili fonetikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 203 b.